

VIZANTIYA IMPERIYASINING O`RTA ASRLARDAGI TARIXI

Xo`janazarov To`ychi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti talabasi*

Normurodov Muhammad

*Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti talabasi*

**Annotasiya:** *Maqola Vizantiya imperiyasidagi tarixiy jarayonlar, ma`daniyatning rivojlanishi xo`jalik shakllari va savdo-sotiq munosabatlari hamda Vizantiyaning ijtimoiy hayoti haqida ma`lumot beradi. Bu davrda imperiya qay tarzda rivojlarganing asosiy omillar ya`ni savdo aloqalarining bu o`shish jaroyonidagi ahamiyati shu bilan birgalikda ta`lim tizmining bu davrdagi ahamiyati qanchalik muhimligi to`liq yoritilib beriladi. Bundan tashqari, xulosa qismida Vizantiya davlati paydo bo`ganligining tarixiy jarayonlarga ta`siri qay darajada ekanligini aytib o`taman.*

**Kalit so`zlar:** *Romeylar, qulchilik, ziroatchilik, Oltin ko`prik, numisma, vasileis, olamshunoslik, astronomiya, harbiy yurishlar, adolatli boshqaruv.*

O`rta asrlarning jahon tarixida Vizantiya o`zining uzun va ahamiyatli tarixi bilan qatnashdi. Bilamizki, Rim imperiyasi 395- yil ya`ni imperator Feodosiyning o`limidan so`ng ikki qisimga bo`linib ketadi natijada bu davrlar rasmiy ravishda Sharqiy Rim imperiyasi va G`arbiy Rim imperiyasi nomini oladi. Bu maqolani Sharqiy Rim imperiyasi ya`ni Vizantiya imperiyasi tarixiga bag`ishlayman. Bu imperiya ham Yevropa ham Osiyo hududida joylashgani uchun uni G`arb va Sharq o`rtasidagi ma`daniyatlar va ilmlar ayrboshlovchi o`rta asr davlati deyishimiz ham mumkin. Bu imperiyaning eng rivojlangan va poytaxt shahri Konstantinopol hisoblanadi. Vizantiya imperiyasi tarkibiga Bolqon yarim oroli, Misr, Suriya, Kichik osiyo, shuningdek, Krit va Kipr orollari kiradi. Bu hududlar doimiy bo`lmasdan imperiyaning hududi goh kengayib, goh kamayib turgan. Imperiya aholiosi o`z davlatini Rim-Romey va o`zlarini esa romeylek xalq deb atashgan. Bundan tashqari, Sharq mamlakarlarida ham Vizantiya aholisini rimliklar sifatida bilishgan. Vizantiya imperiyasida ko`pchilik davlatda bo`lgani kabi qulchilik qisman bo`lsada saqlanib qolgan. Lekin aholining katta qismini erkin dehqonlar tashkil qilgan bo`lib, ular asosan, sun`iy sug`orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug`ullanardi. Imperiyada chorvachilik rivojiga ham e`tabor qaratilgan bo`lib minglab yaylovlarda chorva mollari boqilardi. Dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda savdo-sotiq va hunarmandchilik ham jadal rivojlandi. Shuning uchun imperiyada Eddesa, Konstantinopol, Antioxiya kabi shaharlar VI asrning 50-60-yillarida savdo va hunarmandchilik markaziga aylandi. Dunyoning deyarli barcha tomonidan savdogarlar Vizantiya imperiyasining bozorlariga shoshilishganlar. Buning asosiy sababi Konstantinopol Osiyo va Yevropani bog`laydigan "Oltin Ko`prik" bo`lgan. Bunday qulay joylashuv sababli Konstantinopol

o`zining numisma nomli oltin tangalari o`sha davrdagi ishonchli pul birligini yarata ilgan edi.

Vizantiya imperiyasining davlat boshqaruv tizmi haqida aytib o`tdigan bo`lsak, imperiyani vasilevs ya`ni podsho boshqargan. Unga ko`plab qo`shin singari, sud, soliq moliya tashkilotlari va davlat amoldorlari, vazirlar, qo`mondonlar podsho xizmatiga shay turganlar. O`rta asrlarda Vizantiya imperiyasida oliy maslahat organi hisoblangan sinklitning ahamiyati katta bo`lgan. Bu so`z lotinchadan tarjima qilinganda senat dagan ma`noni anglatadi. Yana shuni aytish joizki, Vizantiya imperiyasida oddiy aholining yuqori darajadagi amaldorga aylanishi hattoki, ular imperator darajasiga ham erishishgan. Bu holat esa davlat boshqaruvidagi ahamiyatli jarayonlardan biri hisoblanadi.

Endi Vizantiya madaniyatiga to`xtaladigan bo`lsak ularning madaniyati Ellada madaniyatining ko`plab jihadlarini o`zida mujassam etgan. Ellinlar bilan romeylar madaniyat va an`analarining chambarchas bog`lanishi ellinizmni olib keladi. Hamda shu madaniyat vizantiyaliklar hayotida muhim rol o`ynadi. Vizantiyada ko`plab madaniyat va ma`rifat markazi sifatida shakllangan. Hamda shu bilimlar o`laroq, ularning atrofida mavjud bo`lgan harbiy dori-darmonlar, falsafa, madaniyat, madaniyat, olamshunoslik, meditsina, matematika va astronomiya sohasidagi an`analar shakllangan. Vizantiya imperiyasining ta`lim tizmiga e`tabor beradigan bo`lsak, IX asr o`rtalariga kelib, Magnavr oliy maktabi ishlay boshladi. Bu maktab oliy dunyoviy amaldor va din peshvolarini tayyorlar edi. XII asr o`rtalarida Konstantinopolda yuridik va falsafiy maktablar davlat muassasasi sifatida ochildi. XII asrda oliy maktabda tibbiyot fani ham o`qitila boshladi. Vizantiyalik nafaqat ta`lim va ilm-fan balki, qishloq xo`jaligida ham o`ziga xos bo`lishgan. Ular asosan, suniy sugorish tizmidan foydalanishgan va poliz maxsulotlari va sabzavotlar yetishtirishgan. Tibbiyot Vizantiyada rivojlangan sohalardan biri sifatida tanilgan. IV asrda pergamlilik shifokor Oribasiy tibbiy ensiklopediya yaratgan, shifokor Nikshba jarroxlik bo`yicha darslik yozgan. Konstantinopolda maxsus jarrohlik va ayollar kasalliklari bo`limlari bo`lgan kasalxonalar tashkil etilgan, ularning huzurida tibbiyot bilim yurtlari ochilgan. Ko`plab urushlar natijarida hunarmandchilik sohasiga e`tabor kamaydi. Shu sababli, XII asr dan boshlab Vizantiya hunarmandchiligining G`arbiy Yevropa hunarmandchiligi (shishasozlik, kemasozlik va h.k.)dan orqada qolishiga sabab bo`ldi. XIV-XV asrlarga kelib esa, Vizantiya to`qimachiligi italyan to`qimachiligi bilan raqobat qila olmay qoldi. Vizantiya me`morligining rivojlangan davri VI asrga to`g`ri keladi. Bu davrda Konstantinopol jahondagi yirik shaharlardan biri hisoblangan. Shahar atrofi mustahkam qal`a devorlari bilan o`ralib, xandaqlar qazilgan. Ibodatxonalar qurilishida esa bazilika uslubidan foydalanilgan. Keyinchalik bu uslub qo`shni mamlakatlar me`morligiga ta`sir qilgan. Ibodat-xonalar tashqi ko`rinishi qo`pol va og`ir bo`lib, ichki ko`rinishi esa, aksincha, o`ta hashamdor bo`lgan. VII-VIII asrlarga kelib esa, Vizantiya ibodatxonalar qurilishida o`zgarishlarni kuzatishimiz mumkin ya`ni o`rta asr italyan me`morligi uslubiga xos bo`lgan renessans an`analari asosida inshootlarning

xochsimon gumbazli mumtoz turi qo'llanilgan. Teatr san`ati esa Vizantiyada antik davrdan beri shakllanib kelgan. IV asrda Konstantinopolda 4 ta teatr bor edi, mim va pantomima (so'zsiz, imo-ishorali) hangomalar hamda dolzarb mavzudagi tomoshalar ko'rsatilardi. Cherkov tomosha ko'rsatishni xristian diniga dushman, ma'jusiylilik unsuri deb hisoblab, V asrda yaratilgan teatrdagi antik teatr an'alarini yo'qotib, aktyorlarni xristian jamoalaridan chiqarib yubordi. Teatr inshootlari buzib tashlandi, drama asarlarining qo'lyozmalari yo'q qilindi. Cherkov mimlarga ayniqsa shafqatsizlik qildi, ammo ularning an'analari xalq ommasi orasida davom etaverdi. Vizantiya cherkovi diniy targ'ibot maqsadida Bibliya va ibodat rasm-rusumlari ruhidagi dramalarni avj oldirdi.

Xulosa shuki, Vizantiya imperiyasi o`rta asrlarda ham madaniy, ham harbiy sohadagi salohiyatini ochib bera oldi. Zero, bu davlatning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bunday faktorlarni o`rta asrlarda faqatgina Vizantiya imperiyasi hamda aytish joiz bo`lsa, Temuriylar davlati yarata oldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=Yuridik&action=edit&redlink=1>)
2. Heywood
3. Cameron 2006, ss. 54-61